

THE PROBLEMS OF TRANSLATING GERMAN SUBJECTS IN UZBEK LANGUAGES WITH PARTICIPATION

Gazieva Zaynabxon Narimonova

O'zDJTU roman-german tillari tarjimashunosligi kafedراسi o'qituvchisi

Tel.: +998935772841, E-mail: zaynab.gazieva@mail.ru

ANNOTATION

Below is a discussion of idioms involving some German subjects and their translation into Uzbek, alternative versions in the native language, and translation.

Keywords: idiom, translation, translator, subject idiom

Idioma – [*yun.* idioma – o'ziga xoslik, xususyat] *t/sh.* Ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi, ixcham ibora; frazeologizmlarning bir turi. Mas., *tomdan tarasha tushgandek, og'zingga qarab gapir.* [1.]

Mutarjimning tarjima davrida ko'p vaqti va kuchini oladigan jarayonlardan biri bu chet tilidagi idiomalarni ona tiliga va yoki aksincha ona tilidagi idiomalarning chet tiliga o'girish pallasidir. Boisi idioma bir millat, el, xalqning turmish tarzi, dunyo qarashi, fikr-mulohazasi, kechinmalari hamda o'tmish hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan bo'lib, bir xalq idiomasi o'zga xalqning tabiatiga to'g'ri kelavermasligi mumkin. Shu boisdan ham mutarjim idiomalar tarjimasida ko'proq kitob varaqlashi va yoki tarjimonlik sohasida yillab to'plagan tajribasiga tayanishi kerak bo'ladi.

Mutarjimdan idioma tarjimasida o'ta ehtiyotkorlik talab qilinadi. Tarjima haddan ortiq ona tiliga moslashtirilishi va yoki so'zma-so'z berilishi mumkin emas. Aks holda matn o'quvchi nigohida tushunarsiz va yoki shubxaga sabab bo'ladi.

Idiomalar nafaqat turli tuman voqelik va mavzularga boy, balki ularda qo'llanadigan predmet, vosita so'zlarga ham egadir. Misol uchun idiomalarda inson, o'simlik, jonivorlar nomlari ko'p uchraydi. Quyida ba'zi nemis tilidagi predmetlar qatnashgan idiomalar va ularning o'zbek tiliga berilishi, ona tilimizdagi muqobil variantlari hamda tarjima muhokamasi berib o'tiladi.

Idioma: *etw. aus dem Ärmel/aus den Ärmeln schütteln (umg)* [2.]

So'zma-so'z tarjimas: nimanidir yengdan silkitmoq

Mazmuni: *etw. schnell bsw. mühelos erledigen* [3.]

tez va oson hal etmoq

Muqobil variant: *bir deganda/kiprik qoqmay/hamirdan qil sug'urgandek (bajarmoq)*

Payqagan bo'lsangiz yuqoridagi misolda **Ärmel**, ya'ni "yoqa" [4.] so'zi tarjimada tushib qoldi. Boisi idiomalar tarjimasida ko'pincha so'zlarga emas mazmunga sodiq qolinadi. Bu esa o'quvchini konteksni to'laqonli tushunishiga zamin bo'ladi.

Wenn Irina denkt, den Abschluss aus dem Ärmel schütteln zu können, dann hat sie sich aber gründlich vertan. [1.1]

Agar Irina yakuniy imtihonlarni o'ynab-kulib topshiraman deb o'ylasa, qattiq yanglishadi.

Navbatdagi misol: *das Heft in der Hand haben* [5.]

So'zma-so'z tarjimas: daftar qo'lda bo'lmoq

Mazmuni: *jmdn. beherrschen; ein Geschehen bestimmen; Herr sein* [6.]

egalik qilmoq; rahbarlik qilmoq

Muqobil variant: tashabbusni qo'lga olmoq

Bu yerda **Heft** va **Hand** [7.] daftar hamda qo'l so'zlari o'zbek tiliga tarjima jarayonida tushib qoladi.

Yana bir misol: *nach jmds. Pfeife tanzen* [8.]

So'zma-so'z tarjimasi: kimningdir hushtagiga raqsga tushmoq

Mazmuni: *[stets] tun, was jmd. verlang/wiederspruchslos tun, was der andere will, sich in allem nach jmdm. richten* [9.]

o'zgalarning aytganini so'zsiz bajarish

Muqobil variant: birovning doirasiga o'ynamoq

Yuqoridagi idiomada **Pfeife** [10.] hushtak predmeti tarjimada tushib qoladi.

Chet tilidagi va yoki ona tilidagi maqol, fraza, idiomalarni o'girish jarayonida o'sha millat qadriyatlarini, ananna, dunyo qarashiga hos tarzda tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Aks holda har ikki tilning o'quvchisi tarjima asarni mazmun-mohiyatini anglamasligi mumkin. Misol uchun, *jmdm. die Pistole auf die Burst setzen* [11.] (*umg*) iborasini olsak.

So'zma-so'z tarjimasi: kimnidir qulog'iga burgani o'tkazmoq

Mazmuni: *jmdn. für etw. kaum zu Erreichendes begeistern; in jmdm. einen kaum erfüllbaren Wunsch wachrufen* [12.]

erishish qiyin bo'lgan orzu/istakka umid uyg'otmoq

Muqobil variant: umidvor qilmoq, ichini qizdirmoq

Afsuskiy tarjimonlikka davogarlik qilayotgan ba'zi qo'shtirnoq ichidagi olimlar o'z lavozimi va ilmiy bo'lmagan kuchidan foydalangan holda ilm, adabiyot yaratuvchi shaxslar kelajak avlot ilmini yanglish yo'llarga boshlaydi. Quyida berilgan iborani Sh.Kuvanova tomonidan kimningdir *bo'g'zidan olmoq, giribonidan olmoq* [13.] deya o'zbek tiliga berilishi yuqoridagi fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Muallif tomonidan yaratilgan qo'llamadagi bunday qaltis xatoliklarga taqrizchilik qilgani X.Raximov kabi professor olimlar bee'tiborligi esa kishini hayratga soladi.

Xulosa o'rnida, chet tili va yoki ona tilidagi so'z, ibora, maqol, gap, butun matn tarjimasi kishidan rostmana ilm, so'zni his etish, o'sha millat madaniyatini bilish kabi bilimlarni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005. 10-bob, 174-b.
2. Herbert Görner: *Redensarten*. In: *Kleine Idiomatik der deutschen Sprache*. Nr. 2, 1980. VEB Bibliographisches Institut Leipzig, S. 21.
3. Prof. Dr. Gerhard Wahrig, Ursula Herman: *Wahrig*. In: *Deutsches Wörterbuch*. Nr. 6, 1997. Bertelsmann Lexikon Verlag, S. 210.
4. Bo'tayev Z., Ismoilov Y., Karimov Sh., Nemischa-o'zbekcha lug'at (Deutsch usbekisches Wörterbuch), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Toshkent, 2007. 16-b.

5. Herbert Görner: *Redensarten*. In: *Kleine Idiomatik der deutschen Sprache*. Nr. 2, 1980. VEB Bibliographisches Institut Leipzig, S. 85.
6. 3. Prof. Dr. Gerhard Wahrig, Ursula Herman: *Wahrig*. In: *Deutsches Wörterbuch*. Nr. 6, 1997. Bertelsmann Lexikon Verlag, S. 612.
7. Bo'tayev Z., Ismoilov Y., Karimov Sh., Nemischa-o'zbekcha lug'at (Deutsch usbekisches Wörterbuch), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Toshkent, 2007. 74-77-b.
8. 2. Herbert Görner: *Redensarten*. In: *Kleine Idiomatik der deutschen Sprache*. Nr. 2, 1980. VEB Bibliographisches Institut Leipzig, S. 139.
9. Prof. Dr. Gerhard Wahrig, Ursula Herman: *Wahrig*. In: *Deutsches Wörterbuch*. Nr. 6, 1997. Bertelsmann Lexikon Verlag, S. 955.
10. Bo'tayev Z., Ismoilov Y., Karimov Sh., Nemischa-o'zbekcha lug'at (Deutsch usbekisches Wörterbuch), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Toshkent, 2007. 138-b.
11. Herbert Görner: *Redensarten*. In: *Kleine Idiomatik der deutschen Sprache*. Nr. 2, 1980. VEB Bibliographisches Institut Leipzig, S. 63.
12. Prof. Dr. Gerhard Wahrig, Ursula Herman: *Wahrig*. In: *Deutsches Wörterbuch*. Nr. 6, 1997. Bertelsmann Lexikon Verlag, S. 489.
13. Kuvanova Sh.O. Nemis tili, Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta ta'lim maklatblari o'quvchilari uchun qisqacha ma'lumotnoma, Niso Poligraf, Toshkent, 2013. 422-b.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLAR RO'YXATI

1. https://de.wiktionary.org/wiki/etwas_aus_dem_Armel_schütteln
2. <https://play.google.com>
3. <http://sayyod.com/forum>
4. <https://yandex.ru/search>